



Talabalarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari: prinsiplari va bosqichlari

Siddikov Bahtiyorjon Saidqulovich –

Farg'ona davlat universiteti,

pedagogika fanlar nomzodi, professor

E-mail: bs.siddiqov@pf.fdu.uz

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-7712-6654>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, mazmuni, prinsiplari va bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Aksiologik kompetensiya shaxsning umuminsoniy, milliy, kasbiy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini anglash, ularni baholash, shaxsiy e'tiqod va hayotiy faoliyatida namoyon etish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifat sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda aksiologik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatli yondashuv hamda refleksiv yondashuvning imkoniyatlari asosida aksiologik kompetensiyani rivojlantirishning bosqichli modeli taklif etilgan. Shuningdek, talabalarining qadriyatli munosabatlarini shakllantirishda pedagogik shart-sharoitlar, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, refleksiv topshiriqlar va amaliy faoliyatning ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: aksiologiya, aksiologik kompetensiya, qadriyat, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik mexanizm, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar.

Механизмы развития аксиологической компетентности студентов: принципы и этапы

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и педагогической точки зрения анализируются механизмы, принципы и этапы развития аксиологической компетентности студентов высших образовательных учреждений. Аксиологическая компетентность рассматривается как интегративное качество личности, отражающее способность осознавать, оценивать, внутренне принимать и реализовывать общечеловеческие, национальные, профессиональные и духовно-нравственные ценности в личной и профессиональной деятельности. На основе аксиологического, компетентностного, личностно-ориентированного, деятельностного и рефлексивного подходов предложена поэтапная модель развития аксиологической компетентности студентов. В исследовании обосновывается значение педагогических условий, интерактивных методов обучения, проблемных ситуаций, рефлексивных заданий и практической деятельности в формировании ценностных ориентаций студентов. Процесс развития включает аксиологико-просветительский, аксиологико-осознанный и мотивационный, аксиологико-

практический, а также рефлексивно-оценочный этапы. Результаты исследования показывают, что системная интеграция ценностного содержания в образовательный процесс способствует формированию у студентов осознанной ценностной позиции, ответственного отношения к деятельности и профессиональной компетентности.

Ключевые слова: *аксиология, аксиологическая компетентность, ценность, ценностная ориентация, компетентностный подход, педагогический механизм, духовно-нравственные ценности, личностные ценности, рефлексия, мотивация, аксиологическая деятельность.*

Mechanisms for developing students' axiological competence: principles and stages

Annotation. *This article provides a theoretical and pedagogical analysis of the mechanisms, principles, and stages of developing axiological competence among university students. Axiological competence is interpreted as an integrative personal quality that reflects an individual's ability to understand, evaluate, internalize, and apply universal, national, professional, and spiritual-moral values in personal and professional activities. Based on axiological, competency-based, learner-centered, activity-based, and reflective approaches, a stage-by-stage model for the development of students' axiological competence is proposed. The study substantiates the importance of pedagogical conditions, interactive teaching methods, problem situations, reflective tasks, and practical activities in shaping students' value orientations. The development process is structured through axiological-educational, axiological-awareness and motivational, axiological-practical activity, and reflective-evaluative stages. The findings demonstrate that the systematic integration of value-based content into higher education contributes to the formation of students' conscious value orientations, responsible attitudes, and professional competence.*

Keywords: *axiology, axiological competence, value, value orientation, competency-based approach, pedagogical mechanism, spiritual and moral values, personal values, reflection, motivation, axiological activity.*

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas'uliyatni anglaydigan va kasbiy faoliyatida insonparvarlik tamoyillariga amal qiladigan mutaxassisni tayyorlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim jarayoni faqat talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bilan chegaralanib qolmasdan, ularning qadriyatli munosabatlari, axloqiy pozitsiyasi, fuqarolik mas'uliyati va kasbiy e'tiqodini rivojlantirishni ham taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyati nafaqat uning bilim va amaliy ko'nikmalariga, balki ushbu bilimlarni qanday qadriyatlar asosida qo'llashiga ham bog'liq. Xususan, pedagogik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyati bevosita inson shaxsi, uning huquqlari, qadr-qimmat, individual xususiyatlari va ma'naviy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lganligi sababli aksiologik kompetensiyaning shakllanganlik darajasi muhim kasbiy ko'rsatkichlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Aksiologik kompetensiya tushunchasi aksiologiya qadriyatlar tabiati, ularning jamiyat va inson hayotidagi o'rni hamda qadriyatli munosabatlarni o'rganuvchi falsafiy-pedagogik yo'nalish bilan chambarchas bog'liq. Pedagogik nuqtayi nazardan aksiologik kompetensiya talabaning qadriyatlarni bilishi bilangina belgilanmaydi. U qadriyatlarni anglash, ularni ichki

qabul qilish, baholash, tanlov jarayonida ularga tayanish va real faoliyatda namoyon etish kabi o'zaro bog'liq komponentlarning yaxlit tizimini tashkil etadi.

Mazkur kompetensiyani tarkibiy tuzilmasini shartli ravishda kognitiv, motivatsion-qadriyatli, emotsional-refleksiv va faoliyatli komponentlarga ajratish mumkin. Kognitiv komponent qadriyatlar to'g'risidagi bilimlarni; motivatsion-qadriyatli komponent shaxsning muayyan qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabati va ichki ehtiyojini; emotsional-refleksiv komponent o'z qadriyatli qarashlarini anglash va baholashni; faoliyatli komponent esa qadriyatlarni amaliy faoliyatda namoyon etishni ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Aksiologik yondashuv zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta'lim mazmunini shaxs tomonidan qadriyatlarni anglash, baholash, tanlash, o'zlashtirish va faoliyatda namoyon etish jarayoni bilan bog'lovchi metodologik asos sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, aksiologik kompetensiya faqat ma'lum qadriyatlar haqidagi bilimlarning mavjudligi bilan emas, balki talabani qadriyatli vaziyatni anglash, unga munosabat bildirish, asoslangan tanlov qilish hamda mazkur tanlovni amaliy faoliyatda namoyon etish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu esa aksiologik kompetensiyani rivojlantirish jarayonini mazmun, faoliyat, refleksiya va baholashning o'zaro bog'langan tizimi sifatida o'rganishni talab etadi.

A.V.Kiryakovaning aksiologik konsepsiyasi mazkur muammoning fundamental metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Olim shaxsning qadriyatlar olamida yo'nalishini bosqichma-bosqich kechadigan jarayon sifatida talqin qilib, uning qadriyatlarni o'zlashtirish, qadriyatlar asosida shaxsiy o'zgarish va kelajakni loyihalash fazalarini ajratadi. Mazkur jarayon davomida izlash, baholash, tanlash va proyeksiyalash mexanizmlari faoliyat ko'rsatadi [1]. Ushbu yondashuv talabalarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirishni bir martalik tarbiyaviy ta'sir emas, balki qadriyatni anglashdan uning shaxsiy va kasbiy faoliyatga ko'chirilishigacha bo'lgan izchil pedagogik jarayon sifatida loyihalash uchun muhim nazariy asos yaratadi. A.V.Kiryakova va T.A.Olxovaya universitet ta'limida aksiologik yondashuvni innovatsion ta'lim jarayonlari bilan integratsiyalash zarurligini asoslaydi [2]. Ushbu pozitsiya oliy ta'limda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish uchun faqat o'quv mazmuniga qadriyatga oid materiallarni kiritish yetarli emasligini, balki talabani mustaqil tanlovi, qadriyatli o'zini o'zi belgilashi va faoliyat tajribasini ta'minlaydigan ta'lim muhitini yaratish lozimligini ko'rsatadi. O.I.Koberning tadqiqotlarida ham universitetning madaniy-ta'limiy muhiti talaba aksiologik salohiyatini rivojlantiruvchi muhim pedagogik resurs sifatida talqin qilinadi. Muallif qadriyatli o'zini o'zi belgilashni axborot-ta'limiy, madaniy va faoliyatga yo'naltirilgan muhit bilan bog'laydi [8; 9].

Tadqiqotning metodologik asosini aksiologik, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va refleksiv yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi aksiologik kompetensiyani faqat nazariy bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki shaxsning qadriyatli yo'nalganligini belgilovchi integrativ pedagogik hodisa sifatida tadqiq etish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, modellashtirish, pedagogik kuzatish, suhbat, diagnostik topshiriqlar va refleksiv tahlil metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aksiologik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmi quyidagi tarkibiy elementlarning o'zaro aloqadorligi asosida qaraladi: maqsad → mazmun → pedagogik shart-sharoit → metod va vositalar → talabani faoliyati → refleksiya → natija.

Mazkur tizimda maqsad komponenti talabalarda qadriyatli ong va munosabatni shakllantirishga yo'naltiriladi. Mazmun komponenti umuminsoniy, milliy, ma'naviy-axloqiy va kasbiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Jarayon komponentida interfaol metodlar, muammoli ta'lim, keys-stadi, munozara, debat, rolli o'yin, loyiha metodi va refleksiv topshiriqlardan foydalaniladi. Aksiologik kompetensiyani rivojlantirishning muhim metodologik sharti — bilimdan e'tiqodga, e'tiqoddan faoliyatga o'tish tamoyilidir. Talaba

qadriyat haqida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin, biroq mazkur qadriyat uning shaxsiy pozitsiyasiga aylanmasa, kompetensiya to'liq shakllangan deb bo'lmaydi.

Shu sababli diagnostika jarayonida uchta asosiy darajani ajratish mumkin:

Reproduktiv daraja – talaba asosiy qadriyatlarni biladi, biroq ularning mazmunini shaxsiy faoliyati bilan yetarlicha bog'lay olmaydi.

Produktiv daraja – talaba qadriyatlarni tahlil qiladi, muayyan vaziyatlarda ularni qo'llashga harakat qiladi va mustaqil fikr bildiradi.

Refleksiv-ijodiy daraja – talaba qadriyatlarni ongli ravishda tanlaydi, ularni shaxsiy e'tiqod darajasida qabul qiladi va kasbiy hamda ijtimoiy faoliyatida mustaqil ravishda namoyon etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotning nazariy tahlili talabalarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish jarayoni bir necha o'zaro bog'liq bosqichlarda tashkil etilishi zarurligini ko'rsatadi.

Aksiologik-ma'rifiy bosqich. Mazkur bosqichning asosiy vazifasi talabalarda qadriyatlar, ularning turlari, funksiyalari va ijtimoiy-pedagogik ahamiyati to'g'risida dastlabki ilmiy tasavvurlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu bosqichda talabalar umuminsoniy, milliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, intellektual va kasbiy qadriyatlarning mazmun-mohiyati bilan tanishtiriladi. Shuningdek, “qadriyat”, “qadriyatlar tizimi”, “qadriyatli yo'nalganlik”, “aksiologik munosabat”, “kasbiy etika” kabi tushunchalarning o'zaro aloqadorligi ochib beriladi. Mazkur bosqichda ma'ruza, seminar, konseptual xarita, “aqliy hujum”, savol-javob va muammoli vaziyatlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Aksiologik-anglash va motivatsion bosqich. Ikkinchi bosqichda talabaning qadriyatlar haqidagi nazariy bilimlarini shaxsiy pozitsiyasi bilan bog'lashga e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda tashqi pedagogik ta'sirning ichki motivatsiyaga aylanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba “Qaysi qadriyatlar men uchun muhim?”, “Kasbiy faoliyatimda qanday qadriyatlarga tayanaman?”, “Muayyan vaziyatda qadriyatlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelganda qanday qaror qabul qilaman?” kabi savollar asosida o'z qarashlarini tahlil qiladi.

Mazkur bosqichda aksiologik dilemma, keys-stadi, munozara, debat, esse, refleksiv kundalik va vaziyatli topshiriqlar samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Aksiologik-amaliy faoliyat bosqichi. Ushbu bosqichda talabalarining qadriyatli qarashlarini amaliy faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlari yaratiladi. Nazariy bilimlarning real vaziyatlarda qo'llanilishi aksiologik kompetensiyaning muhim indikatorini hisoblanadi. Masalan, pedagogik yo'nalish talabalari bilan ishlashda bolaga hurmat, pedagogik takt, adolat, mas'uliyat, hamkorlik, bag'rikenglik va insonparvarlik kabi qadriyatlarning amaliy faoliyatdagi namoyon bo'lishini modellashtirish mumkin. Talabalar turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladi, muqobil qarorlarni taqqoslaydi va o'z qarorini aksiologik mezonlar asosida asoslaydi.

Refleksiv-baholash bosqichi. Aksiologik kompetensiyaning rivojlanishida refleksiya alohida o'rin tutadi. Chunki shaxs o'zining qadriyatli qarashlari, qarorlari va xatti-harakatlarini tahlil qilishi orqali o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu bosqichda talabalar o'z faoliyatini tahlil qiladi, mavjud qadriyatli pozitsiyasini baholaydi, qarama-qarshi fikrlarni qabul qilish va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Refleksiv bosqich uchun “Men nimani angladim?”, “Mening qarashimda qanday o'zgarish yuz berdi?”, “Qarorim qaysi qadriyatga asoslandi?”, “Kelajakdagi kasbiy faoliyatimda bundan qanday foydalanaman?” kabi savollar asosida refleksiv topshiriqlar tashkil etilishi mumkin.

Tadqiqot natijasida talabalarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish quyidagi prinsiplar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiqligi aniqlandi:

Qadriyatlarning tizimliliği prinsipi. Qadriyatlar alohida hodisalar sifatida emas, balki o'zaro bog'langan yaxlit tizim sifatida o'rganilishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilganlik prinsipi. Talabaning individual tajribasi, ehtiyoji, qiziqishi va shaxsiy pozitsiyasi aksiologik rivojlanishning asosiy subyekti sifatida qaraladi.

Onglilik va ixtiyoriylik prinsipi. Qadriyatlarni mexanik ravishda singdirish emas, balki ularni anglash, baholash va ongli ravishda qabul qilish ustuvor bo'lishi kerak.

Faoliyatga yo'naltirilganlik prinsipi. Qadriyatli qarashlar amaliy faoliyatda namoyon bo'lgandagina kompetensiyaviy xususiyat kasb etadi.

Refleksivlik prinsipi. Talabaning o'z qarashlari, qarorlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish imkoniyatini muntazam yaratish zarur.

Dialogik hamkorlik prinsipi. Qadriyatlar bilan bog'liq masalalarni o'zlashtirishda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlari muhim ahamiyatga ega.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi prinsipi. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda o'rganish talabaning ijtimoiy va madaniy kompetentligini rivojlantiradi.

Talabalarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish masalasining ilmiy-pedagogik mohiyati shundaki, mazkur jarayonda ta'limning mazmuni bilan bir qatorda talabaning shaxsiy tajribasi va faoliyati ham markaziy o'rin egallaydi. An'anaviy ta'limda qadriyatlar ko'pincha nazariy tushunchalar sifatida o'zlashtirilsa, kompetensiyaviy yondashuv ularni real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo'llashni talab etadi. Shu jihatdan aksiologik kompetensiya bilim, munosabat va faoliyatning integrativ birligi sifatida namoyon bo'ladi. Agar talaba qadriyatlarning mazmunini bilsa-yu, ammo ularga nisbatan shaxsiy munosabat shakllanmagan bo'lsa, kompetensiyaning motivatsion komponenti yetarlicha rivojlanmagan hisoblanadi. Xuddi shuningdek, ijobiy qadriyatli munosabat mavjud bo'lsa-da, u amaliy xatti-harakatlarda aks etmasa, faoliyatli komponentning shakllanishi yetarli darajada emasligini ko'rsatadi.

Shuning uchun aksiologik kompetensiyani rivojlantirishda "bilim – anglash – munosabat – tanlov – faoliyat – refleksiya" ketma-ketligi muhim pedagogik mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

Mazkur mexanizمنىning samaradorligi, avvalo, ta'lim muhitining aksiologik yo'nalganligiga bog'liq. O'qituvchi tomonidan adolat, hurmat, hamkorlik, mas'uliyat, bag'rikenglik kabi qadriyatlarning amaliy jihatdan namoyon etilishi talaba uchun bevosita pedagogik namuna vazifasini bajaradi. Demak, aksiologik kompetensiyani faqat maxsus mashg'ulotlar orqali emas, balki ta'lim jarayonining barcha komponentlariga singdirilgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Aksiologik kompetensiyaning rivojlanishida pedagogik vaziyatlarning murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish ham muhimdir. Dastlab talaba tayyor vaziyatni tahlil qilsa, keyinchalik muqobil qarorlarni ishlab chiqishi, ularning aksiologik oqibatlarini baholashi va mustaqil qaror qabul qilishi lozim. Bunday yondashuv talabaning nafaqat qadriyatlar haqidagi bilimlarini, balki aksiologik tanlov, axloqiy qaror qabul qilish va refleksiv baholash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shuningdek, aksiologik kompetensiyani rivojlantirishning muhim sharti sifatida ta'lim jarayonida xavfsiz psixologik muhitni yaratish zarur. Chunki qadriyatlar masalasi shaxsiy dunyoqarash va e'tiqod bilan bog'liq bo'lganligi sababli talabaga o'z fikrini erkin ifodalash, boshqa nuqtayi nazarlarni tinglash va ularni tanqidiy tahlil qilish imkoniyati berilishi lozim. Umuman olganda, aksiologik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlarini ta'lim mazmuniga integratsiyalashgan, faoliyatga yo'naltirilgan va refleksiv xarakterdagi pedagogik tizim sifatida qarash mumkin.

XULOSA

Talabalarda aksiologik kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Mazkur kompetensiya shaxsning qadriyatlar haqidagi bilimlari, ularga nisbatan motivatsion-qadriyatli munosabati, refleksiv qobiliyati hamda amaliy faoliyatida qadriyatlarni namoyon eta olish imkoniyatlarining integrativ birligi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, aksiologik kompetensiyani rivojlantirish jarayoni aksiologik-ma'rifiy, aksiologik-anglash va motivatsion, aksiologik-amaliy faoliyat hamda refleksiv-baholash bosqichlarida tashkil etilishi mumkin.

Aksiologik kompetensiyani rivojlantirishni faqat muayyan fan doirasidagi vazifa sifatida emas, balki oliy ta'limning mazmuni, metodlari, pedagogik munosabatlari va amaliy faoliyatini qamrab oluvchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarur. Bunday yondashuv kelajak mutaxassisining kasbiy kompetentligini nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki mustahkam qadriyatli pozitsiya, ijtimoiy mas'uliyat va insonparvarlik tamoyillari bilan boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кирьякова А.В. Aksiologiya obrazovaniya. Orientatsiya lichnosti v mire tsennostey: monografiya. – M.: Dom pedagogiki, 2009. – 318 s.
2. Кирьякова А.В., Ольховая Т.А. Aksiologiya i innovatika universitetskogo obrazovaniya: monografiya. – M.: Dom pedagogiki, 2010. – 204 s.
3. Самсонова Н.В. Система проблемных заданий при обучении иностранному языку как средство развития аксиологической компетенции студентов // Вестник Нижневартковского государственного университета. – 2014. – № 4. – С. 85–92.
4. Stepanenko I.V. Personal axiological competence as a component of society's values capital: The call for higher education in the globalized world // Dialogue and Universalism. – 2018. – Vol. 28, No. 2. – P. 133–147.
5. Schwartz S.H. An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values // Online Readings in Psychology and Culture. – 2012. – Vol. 2, No. 1. – P. 1–20. DOI: 10.9707/2307-0919.1116.
6. Dauyenov Y., Zhumataeva E., Orynbekova A. Methodological framework for the axiological paradigm in the learning environment // Frontiers in Education. – 2022. – Vol. 7. – Article 895470. DOI: 10.3389/educ.2022.895470.
7. OECD. Embedding Values and Attitudes in Curriculum: Shaping a Better Future. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 199 p. DOI: 10.1787/ae2adcd-en.
8. Кобер О.И. Педагогическая технология развития аксиологического потенциала будущего архитектора // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2024. – № 1 (241). – С. 39–47.
9. Кобер О.И. Культурно-образовательная среда университета: возможности развития аксиологического потенциала студентов // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2025. – № 1 (245). – С. 22–28.
10. Siddiqov B.S. Oliy ta'lim muassasalarida aksiologik kompetentlikning mohiyati va institutsional tuzilishi // Fergana Methodical School. – 2025. – 3(2). – B. 3–9.